

Journal of Natural Science

*No1 (6)
2022*

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор7. Насимов А– СамДУ к.ф.д., профессор8. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор9. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц10. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.11. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.12. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф13. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.14. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц15. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.16. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц17. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.18. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)19. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц20. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)21. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц22. Муминова Н-к.ф.н., доц23. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц24. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

NUROTA DAVLAT QO’RIQXONASIDA TARQALGAN O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI “QIZIL KITABI”GA KIRITILGAN O’SIMLIK TURLARI

Avalboyev Olimjon Narkuziyevich, Anvarova Orzigul Anvar qizi

avalbayev7788@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Nurota davlat qo’riqxonasida tarqalgan O’zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan o’simlik turlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar. tur, cho’l, adir, formatsiya, assotsiatsiya, tip, efemer, endemik.

Аннотация: В этой статье приведены информации некоторых видов растений, которые занесены Красного книга республики Узбекистана в Нуратинским государственным заповеднике.

Ключевые слова: вид, пустыня, арыд, формация, ассоциация, тип, эфемер, эндем.

Annotation: This article provides information on some types of plants that are listed in the Red Book of the Republic of Uzbekistan in the Nurata State Reserve.

Keywords: species, desert, hill, formation, association, tupe, efemer, endem.

Atrof - muhitni, o’simliklar dunyosini muhofaza qilish insoniyat uchun juda katta hayotiy ahamiyatga ega. Insoniyat tabiatdan foydalanar ekan, uning asrlar davomida shakllangan tabiiy manzarasini o’zgartirmoqda, unga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. Sanoat tarmoqlari va qishloq xo’jaligining rivojlanib borishi, tabiiy maydonlarni keng miqyosda o’zlashtirilishi ekologik muvozanat buzilishiga sabab bo’lmoqda. Natijada o’simliklarning kamayib ketish xavfi tug’ilmoqda.

O’zbekiston Respublikasi hududida hozirgi kunda 4500 ga yaqin yovvoyi o’simlik va 2000 dan ziyod zamburug’ turlari mavjud. Ular orasida jiddiy muhofazaga muhtoj ko’plab kamyob endem va relik turlar ham mavjud. Bunday turlarning soni 300 dan ortiq bo’lib, ular O’zbekiston florasining 10-12 foizini tashkil etadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda o’simliklarning holati bir muncha yaxshi bo’lishiga qaramay, ko’plab yovvoyi turlarning tabiiy zahiralari keskin kamayib bormoqda. Dunyoga dong’i ketgan lola, shirach, sallagullar, qimmatbaho o’simlik - etmak, dorivor o’simliklar - bozulbang kabilar songgi yillarda keskin kamayib ketdi, bir qancha turlar yo’qolib ketish holatiga kelib qolgan.

Insonlarning tabiatga noto’g’ri munosabati ham o’simliklarning kamayib ketishiga sabab bo’lmoqda. O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, atrof - muhitni, hayvonot va o’simliklar dunyosini muhofaza qilishga alohida e’tibor qaratilgan.

1992 yil 9 dekabr “Tabiatni muhofaza qilish to’g’risida”gi, 2004 yil 3 dekabrda “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to’g’risida”gi qonunlar, 2016 yil 21 sentabrda “O’simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to’g’risida” gi, 2018 yil 16 aprelda “O’rmon haqida”gi qonunlar yangi tahrirda qabul qilindi.


Bu qonunlar o’simlik turlarini saqlab qolish, ularni asrab - avaylash va muhofaza qilishda muhim me’yoriy hujjat hisoblanadi.

Knorring astragali - *Astragalus knorringianus* Boriss shimoli- g’arbiy Pomir - Oloyda o’sadigan kamyob endem tur. Jizzax, Samarqand va Navoiy viloyatida Nurota, Molguzar tog’larida tarqalgan. Urug’idan ko’payadi, mart-aprel oylarida gullab, mevasi aprel-may oylarida yetiladi. Chorva mollarining boqilishi sababli qisqarib bormoqda.

Pufak astragal - *Astragalus leptophysus* Vved. Samarqand va Jizzax viloyatlarida: Turkiston tizmasi va Nurota tog’larida tarqalgan. Soni juda kam yakka-yakka holda o’sadi. Ko’p yillik poyasiz o’t may oyida gullab, mevasi iyunda yetiladi. Chorva mollarining ko’plab boqilishi o’simliklarga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda.

Yirik no’xat - *Cicer grande* g’arbiy Pomir - Oloydagi kamyob endemik tur. Tog’larning o’rta qismidagi toshli va mayda zarrali tuproqlarda o’sadi. Chorva mollarining tartibdiz boqilishi sabab o’simliklar soni kamayib ketgan.

Qoratog’ chalovi - *Stipa karakatiensis* Nurota tog’lari va shimoli-g’arbiy Tyan-Shanning areali qisqarib borayotgan kamyob endemik o’simligi. Bo’yi 20-30 sm ga yetadigan zich poyali, chim hosil qilib o’suvchi ko’p yillik o’t. Tog’larning o’rta va pastki qismlaridagi toshli, soz tuproqli va ohaktoshli yonbag’irlarda o’sadi. Kam tarqalgan kichik - kichik tuplar hosil qiladi. Sanoat korxonalari va boshqa inshootlar qurilishi hamda chorva mollarining boqilishi tufayli kamayib bormoqda.



Ferula helenae



Astragalus knorringianus

Yelena kovragi - *Ferula helenae* Nurota oldi qoldiq tog'larida (Baliqlitog', Egarbelistog') o'sadigan kamyob endemik tur. Tog'ning shag'alli yonbag'irlarida tarqalgan. Tabiiy o'sib turgan joylarning buzilishi va ko'plab mol boqilishi tufayli kamayib ketgan, muhofazaga olinmagan.

Pildiroq qo'shshox - *Seseli turbinatum* Jizzax viloyatining Nurota tizmasi Qo'ytosh tog'i, Ustixon soyida tarqalgan. O'zbekistondan tashqari Qozog'istonda uchraydi. Toshli yonbag'irlar, bodomzor va archazorlar orasida o'sadi, soni aniqlanmagan va maxsus muhofaza choralari ishlab chiqilmagan.

G'aroyib kuzaki - *Autumnalia inopitana* Nurota tizmasidagi Qoratog'ning kamyob endemik o'simligi. Balandligi 1,0 m gacha yetadigan ko'p yillik polikarp o'simlik. Navoiy viloyatining Nurota tizmasi Qoratog'dagi Qoraqarg'a dovoni atrofida tarqalgan. Tabiatda kamyob endemik o'simlik, o'sish joylarida chorva mollari juda ko'p boqiladi, maxsus muhofaza choralari ishlab chiqilmagan.

Zarafshon soxta klauziyasi - *Pseudoclausia zerawschanica* O'zbekistonning janubi-g'arbiy mintaqasiga xos kamyob endemik o'simlik. Jizzax, Samarqand va Navoiy viloyatlarida: Nurota, Oqtog' tizmalarida, Zirabuloq tog'larida uchraydi. Chorva mollarining ko'plab boqilishi va urug'idan yaxshi unib chiqmasligi sababli kamayib bormoqda. Nurota davlat qo'riqxonasida muhofazaga olingan.

Olga lepidiumi - *Lepidium olgae* Nurota tizmasining kamyob endemik turi. Jizzax viloyati: Nurota tog' tizmasining markaziy qismida joylashgan. Tabiatda juda kam, tarqoq holda bir necha tupdan to o'nlab o'simlikkacha tarqoq bo'lgan kichik - kichik populyatsiyalar uchraydi, umumiy soni 1000 tupga yaqin. Nurota davlat qoriqxonasida muhofaza qilinadi.

Nurota kirpio'ti - *Acantholimon nuratavicum* Nurota tizmasidagi kamyob endemik tur. Tog'ning o'rta qismidagi toshli va shag'alli quruq yonbag'irlarda o'sadi. Urug'idan ko'payadi, tabiatda kamyob endemik tur, chorva boqiladigan yerlarda o'sganligi tufayli oyoqosti bo'lib, kamayib ketgan. Nurota davlat qo'riqxonasida muhofaza qilinadi.

Sulisimon kirpio't - *Acantholimon subavenaceum* Nurota tizmasidagi kamyob endemik tur. Nurota tizmasining markaziy qismida tarqalgan (Sentobsoy, Ustuksoy. Tabiatda kichik maydonda tarqalgan. Urug'idan ko'payadi, maxsus muhofaza choralari ishlab chiqilmagan. Nurota qo'riqxonasidagi himoya maydonida o'sadi.

Qardosh lola, Nurota lolasi - *Tulipa affinis* Botschantz G'arbiy Pomir-Oloydagi kamyob endemik o'simlik. Jizzax, Samarqand va Navoiy viloyatlarida: Turkiston va Molguzar tizmalari, Nurota tog'larida tarqalgan, Qirg'iziston va Tojikistonda ham uchraydi. Urug'idan va piyozidan ko'payadi, gullari ko'plab terilishi va chorva mollari boqilishi arealining qisqarib ketishiga olib kelgan. O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Botanika bog'ida 1957 yildan buyon ekib o'stiriladi. Zomin va Nurota davlat qo'riqxonalarida hamda Zomin milliy tabiat bog'ida muhofaza qilinadi.

Yovvoyi tok - *Vitis vinifera* O'zbekistondagi areali ajralgan kamyob tur. Daryo yoqalari, daralarda, shag'al, mayda zarra jins tuproqli yonbag'irlarda o'sadi. Urug'idan hamda vegetativ yo'l bilan ko'payadi. Chorva mollarining boqilishi va o'tin sifatida ishlatilishi natijasida qisqarib bormoqda. Nurota va Chotqol davlat qo'riqxonalarida va Ugam - Chotqol milliy tabiat bog'ida muhofaza qilinadi.

Bezchali zo'rcha - *Silene paranadena* Nurota va Molguzar tizmalarida tarqalgan, Tog'larning o'rta qismida va butazorlar orasida o'sadi, urug'idan ko'payadi. Nurota davlat qo'riqxonasida muhofaza qilinadi.

Aralash piyoz - *Allium praemixtum* Nurota va G'arbiy Tyan-Shanning janubi-g'arbiy qismida juda kam tarqalgan endemik o'simlik. Dengiz sathidan 900- 1200 m balandlikda qoya toshlarning yoriqlari, toshli yonbag'irlarda o'sadi. Mahalliy aholi tomonidan ozuqa sifatida yig'ib olinadi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika bog'ida o'stiriladi. Nurota davlat qo'riqxonasida muhofaza qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi, I-tom. O'simliklar, -T.: Chinor ENK, 2009.
2. Красная книга Узбекской ССР. Растения. -Ташкент. ФАН. Т. 2. 2009. 150 с.
3. Флора Узбекистана. Т. IV. Издательства АН УзССР. –Ташкент. 1959. 503 с.
4. Ўзбекистон Республикасининг Қизил китоби, -Т. “Chinor ENK” экологик-ноширлик компанияси, 2019.